KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
OAK: 01-08/1819/6
www.herald.kokanduni.uz

NIKOHGA MOSLASHISH DAVRIDA OILAVIY NIZOLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hakimova Nargiza Djavlievna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
khakimovanargiza1979@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.54613/99kdks18

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ
Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 48
KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
birlamchi moslashish, psixologik xavf, rolli kutilmalar inqirozi, oilaviy tizim, destruktiv xatti-harakatlar

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ
Birlamchi moslashish davri – yangi oila uchun eng yuqori psixologik xavf hududidir. Ushbu tadqiqot oila tizimining shakllanish bosqichida yuzaga keladigan nizolarning yashirin mexanizmlarini ochib beradi. Shaxsiy ustanovkalar va kognitiv qoliplar qanday qilib yagona oilaviy makonga transformatsiya qilinadi? Ishda rolli kutilmalar inqirozi hamda destruktiv xatti-harakatlar tahlil qilinib, ziddiyatlarni parchalanish xavfidan barqaror oilaviy tuzilmani shakllantirish vositasiga aylantirishning ilmiy-psixologik qonuniyatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolada nikohga moslashish davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolarning kelib chiqish omillari, ularning rivojlanish mexanizmlari va er-xotin munosabatlariga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy rollar va mas’uliyat taqsimoti, individual ehtiyojlar, hissiy munosabatlar hamda ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro aloqadorligi yoritilgan. Oilaviy kelishmovchiliklarni konstruktiv hal etishda samarali muloqot, o‘zaro hurmat, psixologik tayyorgarlik va murosaga kelish ko‘nikmalarining ahamiyati asoslangan. Olingan nazariy xulosalar yosh oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va nikoh munosabatlarining barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan amaliy yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER
Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 48
KEYWORDS
primary adaptation, psychological vulnerability, crisis of role expectations, family system, destructive patterns

ANNOTATION
The primary adaptation period represents the zone of highest psychological vulnerability for a newly formed family. This research exposes the latent mechanisms of conflict that emerge during the structural formation of the family unit. How do individual cognitive frameworks transform into a unified marital space? By analyzing the crisis of role expectations and destructive behavioral patterns, this paper demonstrates the scientific and psychological principles of systematically re-engineering conflicts–from a catalyst for dissolution into a foundational tool for marital resilience. The article provides a scientific and theoretical analysis of the factors contributing to family conflicts during the marriage adaptation period, their development mechanisms, and their impact on marital relationships. It also examines the interrelationships between family roles and the distribution of responsibilities, individual needs, emotional relationships, and sociocultural factors. The importance of effective communication, mutual respect, psychological preparedness, and compromise skills in constructively resolving family conflicts is substantiated. The theoretical conclusions contribute to improving practical approaches aimed at fostering a healthy psychological environment in young families and strengthening the stability of marital relationships.

Kirish

Oila – jamiyatning asosiy poydevori. Biroq, ko‘p yillik ilmiy va ijtimoiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, oilaning eng zaif va parchalanish xavfi yuqori bo‘lgan pallasi bevosita dastlabki moslashish davriga to‘g'ri keladi. Amaliy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, nikohning ilk yillaridagi ajrimlarning aksariyat qismi ro‘zg‘or muammolari emas, balki er-xotin o‘rtasidagi ruhiy kelishmovchiliklar hamda nizolarni oqilona hal qila olmaslik oqibatida yuzaga keladi.

Nikohga moslashish – bu shunchaki bir uyda yashash emas. Bu ikki xil fikrlash tarzi, qadriyatlar va ota-ona xonadonidan singdirilgan qarashlarning o‘zaro to‘qnashuvi hamda uyg'unlashish jarayonidir. Har bir shaxs yangi tuzilgan oilaga o‘zi anglamagan holda, ong ostida yashiringan o‘ziga xos “mukammal oila” andozasini olib kiradi. Insonning shaxsiy xohishlari va ichki kutilmalarining hayotiy haqiqat hamda juftining asl fe’l-atvori bilan to‘qnashuvi oilada keskin hissiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, yosh oilalardagi janjallarga shunchaki xatarli fojia sifatida emas, balki oila tuzilmasi rivojlanishining muqarrar bir belgisi sifatida qarash talab etiladi. Ushbu inqirozli holatlarning yashirin sabablarini o‘rganish, shuningdek, inson tabiatidagi shaxsiy “Men”likni va xudbinlikni yagona “Biz” tushunchasiga, umumiy oilaviy makonga bo‘ysundirish qonuniyatlarini tahlil qilish bugungi amaliy psixologiyaning eng asosiy va dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Nikohga moslashish davridagi oilaviy nizolarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda oilaviy munosabatlar, shaxslararo muloqot, oilaviy rollar va qadriyatlar tizimiga oid ilmiy qarashlar muhim ahamiyatga ega. E.G.Eydemiller va V.Yustitskis oilaviy munosabatlarni tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, oilaviy vazifalar va rollarga oid kutilmalarning mosligi oilaning psixologik barqarorligiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar [1, 215-b.]. Ushbu yondashuv nikohning dastlabki bosqichida er-xotinning oilaviy mas’uliyat, kundalik vazifalar va o‘zaro munosabatlar borasidagi

qarashlari o‘rtasida yuzaga keladigan tafovutlarni tushuntirish imkonini beradi. Shu jihatdan, oilaviy rollarni o‘zaro kelishuv asosida belgilash va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish yosh oilalardagi kelishmovchiliklarni kamaytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

V.A.Sisenkoning ilmiy qarashlarida er-xotin o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari, o‘zaro talab va kutishlar hamda oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar muhim o‘rin tutadi [2, 54-b.]. Ushbu yondashuv oilaviy kelishmovchiliklarni faqat maishiy muammolar bilan izohlamasdan, ularning ortida turgan psixologik ehtiyojlar, o‘zaro tushunish va munosabatlardan qoniqish masalalarini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi. Nikohga moslashish davrida er-xotinning bir-biridan kutayotgan munosabati, e’tibor va qo‘llab-quvvatlash darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Bunday tafovutlarni o‘z vaqtida aniqlash, muammolarni ochiq muhokama qilish va o‘zaro maqbul yechimlarni izlash oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

G‘.B.Shoumarov tahriri ostida tayyorlangan ilmiy manbalarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikoh barqarorligi va oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalalariga e’tibor qaratilgan [3, 112-b.]. Ushbu qarashlar o‘zbek oilalarida nikohga moslashish jarayonini milliy qadriyatlar, urf-odatlar va qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Yosh oilaning mustaqil munosabatlar tizimini shakllantirishi, ota-onalar bilan aloqalarni muvozanatli yo‘lga qo‘yishi hamda ichki masalalarni o‘zaro maslahatlashuv asosida hal etishi moslashish jarayonining muhim jihatlaridir. Ayniqsa, oilaviy qarorlarga boshqa qarindoshlarning ta’siri, shaxsiy chegaralarning belgilanmaganligi va er-xotinning mustaqil fikrini ifodalashdagi qiyinchiliklar nizolarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

V.Satirning oilaviy munosabatlarga oid psixologik yondashuvi shaxslararo muloqot, o‘zaro hurmat, his-tuyg‘ularni ifodalash va oiladagi psixologik muhitni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [4, 88-b.]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, oilaviy munosabatlarning sifatini belgilashda muammolarning mavjudligidan tashqari, ularni muhokama qilish usuli va oila a’zolarining bir-biriga munosabati ham muhimdir. Nikohga moslashish davrida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni hal etishda ayblash va keskin munosabat bildirish o‘rniga, shaxsiy kechinmalarni ochiq ifodalash, sherikning fikrini tinglash va muammoning umumiy yechimini izlash konstruktiv muloqotni shakllantiradi. Natijada, nizo o‘zaro ishonchni zaiflashtiruvchi omil bo‘lish bilan birga, tomonlarning bir-birini chuqurroq anglashiga imkon beruvchi tajribaga ham aylanishi mumkin.

A.N.Volkova va T.M.Trapeznikovaning ilmiy qarashlari er-xotin munosabatlarini diagnostika qilish, o‘zaro aloqalarning xususiyatlarini aniqlash va oilaviy munosabatlarni metodik jihatdan o‘rganish masalalariga qaratilgan [5, 110–116-b.]. Bunday yondashuv nikohga moslashish davridagi nizolarni tahlil qilishda er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, munosabatlardan qoniqish, oilaviy kutilmalar va muloqotdagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Oilaviy munosabatlarni tizimli o‘rganish nizolarning tashqi namoyon bo‘lishi bilan cheklanib qolmasdan, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni ham aniqlashga xizmat qiladi.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy qarashlar nikohga moslashish davridagi oilaviy nizolarni o‘zaro bog‘liq psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadigan murakkab jarayon sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Oilaviy rollar va vazifalarning taqsimlanishi, shaxsiy ehtiyojlar, qadriyatlar, qarindoshlik munosabatlari, o‘zaro muloqot va munosabatlarni diagnostika qilish ushbu muammoning asosiy tahlil yo‘nalishlarini tashkil etadi. Mazkur masalalarni o‘zbek yosh oilalarining ijtimoiy-madaniy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganish nizolarning sabablarini aniqlash, ularni konstruktiv hal etish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda nikohga moslashish davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, er-xotinning rolli kutilmalari, individual ehtiyojlari, qadriyatlari va shaxslararo muloqot xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar hamda nizolarni konstruktiv hal etishning psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritildi.

Natijalar

Yosh oilada moslashish bosqichi turmush o‘rtoqlarning bir-biriga ma'naviy, ruhiy, moddiy va maishiy jihatdan ko‘nikishini talab etadigan o‘ta murakkab va serqirra jarayondir. Ilmiy tahlillarga ko‘ra, dastlabki yillardagi kelishmovchiliklarning eng katta qismi oilaviy vazifalarni, ya'ni rollarni taqsimlashdagi tushunmovchiliklar bilan uzviy bog'liq. Taniqli psixologlar E.G. Eydemiller va V. Yustitskis o‘z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, turmush o‘rtoqlarning oiladagi vazifalar borasidagi kutilmalarining bir-biriga mos kelmasligi jiddiy ruhiy zarba va oilaviy nizolarning asosiy manbayi hisoblanadi [1]. Har bir yosh kelin-kuyov o‘z ota-onasining oilasidagi tartib-qoidalarni, yozilmagan qonunlarni yangi tuzilgan oilasiga ko‘chirishga intiladi. Masalan, kuyovning ota-onasi oilasida muhim qarorlar faqat ota tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, kelinning oilasida o‘zaro maslahatlashuv ustuvor bo‘lishi mumkin. Ana shunday qarama-qarshi andozalarning bir tom ostida uchrashuvi muqarrar ravishda ruhiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqaradi.

Bu davrda shaxsning o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlari hamda juftining ruhiy holatini to‘liq his qila olmasligi nizolarni yanada chuqurlashtiradi. Oila psixologiyasi bo‘yicha yetakchi mutaxassis V.A. Sisenko yosh oilalardagi inqirozlarni tahlil qilar ekan, nizolarning asosida ko‘pincha er yoki xotinning qadr-qimmatini tasdiqlash, o‘zini namoyon qilish va o‘zaro hissiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi yotishini ko‘rsatib o‘tadi [2]. Sisenkoning fikricha, janjallarning tashqi ko‘rinishi ko‘pincha aldamchi bo‘ladi. Oddiy ro‘zg'or ikir-chikirlari (masalan, maishiy yumushlarning bajarilmasligi yoki uydagi tartibsizlik) ustida chiqqan janjalning asl ruhiy sababi – mehr, e'tibor, hurmat va tan olinishning yetishmasligidadir. Er-xotin tashqi maishiy muammolarni bahona qilib, aslida bir-biriga ruhiy tomondan e'tiborsizlik qilinayotganini yetkazishga urinadi.

Nikohning ilk yillarida ruhiy moslashuvni qiyinlashtiruvchi yana bir muhim omil – bu qadriyatlar va qiziqishlar to‘qnashuvidir. Rus olimasi A.N. Volkova o‘z tadqiqotlarida oilaviy qadriyatlarning mosligi er-xotin munosabatlarining barqarorligini ta’minlovchi asosiy shart ekanligini ta'kidlaydi [5]. Agar turmush o‘rtoqlardan biri uchun oilada moddiy farovonlik va martaba birinchi o‘rinda tursa, ikkinchisi uchun ma'naviy yaqinlik, xotirjamlik va o‘zaro sirdoshlik muhimroq bo‘lishi mumkin. Qadriyatlardagi bunday tafovutlar tez-tez takrorlanuvchi, yechimi topilmaydigan surunkali nizolarga aylanib ketish xavfini tug'diradi. Shu sababli, moslashish davrida tomonlar o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan ma'lum ma'noda chekinib, umumiy oilaviy maqsadlarni shakllantirishlari hayotiy zaruratga aylanadi.

Shu bilan birga, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va turmush tarzidan kelib chiqqan holda, moslashish davrining yana bir o‘ziga xos murakkab jihati mavjud. Mahalliy olimimiz, professor G‘.B. Shoumarov tahriri ostida tayyorlangan ilmiy manbalarda qayd etilishicha, Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek oilalarida kelin-kuyovning o‘zaro moslashuviga ularning ota-onalari, aka-ukalari va qarindosh-urug'larining ta'siri juda kuchli bo‘ladi [3]. An'anaviy katta oilalarda yashash yoshlardan nafaqat o‘z

juftiga, balki uning butun qarindoshlik tizimiga moslashishni talab qiladi. Yoshlarning shaxsiy chegaralarini mustaqil o‘rnata olmasligi, er-xotin o‘rtasidagi sirning tashqariga chiqishi va oila ichki masalalariga uchinchi shaxslarning bevosita aralashuvi ko‘pincha arzimagan tortishuvlarni ham yirik psixologik mojaro darajasiga ko‘tarib yuboradi. Bunday muhitda shaxsiy mudofaa o‘rniga, er va xotinni birlashtiruvchi “Biz” tushunchasini shakllantirish o‘ta qiyin va uzoq davom etadigan jarayonga aylanadi.

Biroq, zamonaviy ruhiyatshunoslik fani oilaviy nizolarga faqatgina vayron qiluvchi, buzg'unchi kuch sifatida qaramaydi. Mashhur psixolog Virdjiniya Satir uqdirib o‘tganidek, insonlar mutlaqo bir xil bo‘lmagani uchun ularning munosabatlarida nizolar kelib chiqishi tabiiy va qonuniy holatdir; bu o‘rinda eng muhimi muammoning o‘zi emas, balki er-xotinning unga qanday yechim topishi va qay tarzda muloqot qilishidadir [4]. Nizo – bu oila tizimida qandaydir nosozlik borligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos ishoradir. Agar yoshlar nizoli vaziyatlarda o‘z his-tuyg'ularini to‘g'ri ifoda etishni, bir-birini ayblashdan qochib, o‘z kechinmalari orqali xotirjam gapirishni o‘rgansalar, nizo o‘zining vayronkor tabiatini yo‘qotadi.

Ushbu davr inqirozlarini muvaffaqiyatli yengib o‘tish uchun turmush o‘rtoqlarda o‘zganing o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish qobiliyati va ochiq, samimiy muloqot madaniyati shakllangan bo‘lishi lozim. Tomonlar o‘z xudbinligidan voz kechib, oilaviy totuvlikni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘ygandagina, moslashish jarayoni ijobiy yakun topadi. Bunday yondashuv natijasida nizo yosh oilani yemiruvchi xavfdan, ularni yanada jipslashtiruvchi, bir-birini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi qimmatli tajribaga aylanadi.

Muhokama

Nikohga moslashish davridagi oilaviy nizolarni chuqurroq anglash uchun er-xotin munosabatlarini faqat ikki shaxsning o‘zaro kelishuvi doirasida emas, balki yangi ijtimoiy tizimning shakllanish jarayoni sifatida ko‘rib chiqish lozim. Bu bosqichda har bir turmush o‘rtog‘i o‘zining avvalgi hayot tarzini, qaror qabul qilish usullarini va munosabatlarga xos odatlarini saqlab qolishga intilishi mumkin. Biroq umumiy hayotni tashkil etish shaxsiy odatlarni qayta ko‘rib chiqish, yangi kelishuvlarni ishlab chiqish va o‘zaro mas’uliyat chegaralarini aniqlashtirishni talab etadi. Shu sababli, moslashish jarayonidagi qiyinchiliklar shaxsiy qarashlar bilan umumiy hayot talablarini muvofiqlashtirish zarurati bilan ham izohlanadi.

Muhokama jarayonida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri — oilaviy nizolarning rivojlanishida tomonlarning vaziyatni qanday talqin qilishi bilan bog‘liq. Bir xil hodisa er va xotin tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Masalan, turmush o‘rtog‘ining sukut saqlashi bir tomon uchun xotirjamlikka ehtiyoj sifatida, ikkinchi tomon uchun esa befarqlik belgisi sifatida qabul qilinishi ehtimoldan xoli emas. Bunday vaziyatlarda muammoning o‘zi bilan bir qatorda, unga berilgan ma’no ham munosabatlarning keskinlashishiga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, oilaviy muloqotda taxminlarga asoslanish o‘rniga, sherikning fikri va hissiy holatini bevosita aniqlashtirish nizolarni boshqarishning muhim sharti hisoblanadi.

Yana bir muhim masala — oilaviy nizolarning takrorlanish xususiyatidir. Ayrim kelishmovchiliklar bir martalik vaziyat bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqalari muntazam ravishda takrorlanib, er-xotin munosabatlarida salbiy kutilmalarni shakllantirishi mumkin. Takroriy nizolar davomida tomonlar muayyan vaziyatni oldindan salbiy baholashga, sherigining xatti-harakatlarini avvalgi tajribalar asosida talqin qilishga moyil bo‘lib qolishi mumkin. Natijada, dastlab kichik bo‘lgan kelishmovchilik ham kengroq norozilikning ifodasiga aylanadi. Bunday holatlarda nizoning faqat tashqi sababini bartaraf etish yetarli emas; uning takrorlanishiga olib kelayotgan munosabat usullari va o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ham aniqlash zarur.

Oilaviy barqarorlikni ta’minlashda er-xotinning nizoli vaziyatlarga munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Muammoni muhokama qilishdan qochish, keskin hissiy javob qaytarish yoki sherikning fikrini inkor etish kelishmovchilikning davom etishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aksincha, suhbat uchun maqbul vaqtni tanlash, har bir tomonning fikrini tinglash va muammoni shaxsga qarshi qaratilgan ayblovlardan ajratish o‘zaro tushunishni kuchaytiradi. Bunda muhim jihat barcha masalalarda bir xil fikrga kelish emas, balki qarashlar turlicha bo‘lgan sharoitda ham o‘zaro hurmatni saqlash va maqbul yechim topish qobiliyatini rivojlantirishdir.

O‘zbek oilalarining ijtimoiy-madaniy sharoitida nikohga moslashish masalasi oilaning kengroq qarindoshlik munosabatlari bilan ham bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Katta avlod vakillarining tajribasi va ko‘magi yosh oila uchun muhim tayanch bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, maslahat va yordamning er-xotin qarorlariga ortiqcha ta’sir ko‘rsatishi mustaqil munosabatlar tizimining shakllanishini murakkablashtirishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun oilada avlodlararo hurmatni saqlagan holda, yoshlarning shaxsiy qarorlari va o‘zaro kelishuvlariga imkon beradigan muvozanatni shakllantirish muhimdir. Bunday muvozanat qarindoshlar bilan aloqalarni cheklashni emas, balki ularning ishtiroki va yosh oilaning mustaqilligi o‘rtasidagi maqbul chegaralarni belgilashni anglatadi.

Muhokamaning yana bir muhim yo‘nalishi nizolarni oldini olishda psixologik tayyorgarlikning ahamiyatidir. Nikohdan oldingi maslahatlar va oilaviy hayotga tayyorlash mashg‘ulotlari davomida muloqot ko‘nikmalari, mas’uliyatni taqsimlash, moliyaviy masalalarni kelishish, shaxsiy chegaralarni belgilash hamda kelishmovchiliklarni hal etish usullariga e’tibor qaratish mumkin. Bunday tayyorgarlik barcha nizolarni bartaraf etishni kafolatlamaydi, biroq yoshlarning murakkab vaziyatlarni anglash va ularga ongli munosabat bildirish imkoniyatini kengaytiradi. Oilaviy maslahat va psixologik yordam esa kelishmovchiliklar muntazam takrorlanib, er-xotinning mustaqil ravishda yechim topishi qiyinlashgan holatlarda qo‘shimcha ko‘mak vazifasini bajarishi mumkin.

Nikohga moslashish davridagi oilaviy nizolarni muhokama qilish ularni faqat salbiy hodisa sifatida baholashdan ko‘ra, munosabatlarning qanday tashkil etilganini ko‘rsatuvchi murakkab jarayon sifatida tushunish zarurligini anglatadi. Biroq nizolarning rivojlantiruvchi imkoniyati faqat ular hurmat, xavfsizlik va o‘zaro mas’uliyat asosida hal etilganida namoyon bo‘ladi. Tahqirlash, qo‘rqitish, majburlash yoki zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan vaziyatlarni oddiy moslashish qiyinchiligi sifatida baholash mumkin emas. Shu bois, oilaviy barqarorlikni ta’minlashda o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, har ikki tomonning shaxsiy daxlsizligi va xavfsizligini himoya qilish ham muhim mezon sifatida qaralishi lozim.

Xulosa

Nikohga moslashish davridagi oilaviy nizolarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, oilaviy munosabatlarning barqarorligi er-xotinning individual qarashlari, hissiy ehtiyojlari va o‘zaro munosabat usullarini muvofiqlashtirish qobiliyatiga bog‘liq. Ushbu jarayonda kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi tabiiy bo‘lsa-da, ularning muntazam takrorlanishi va hal etilmasligi o‘zaro ishonch hamda hissiy yaqinlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, oilaviy nizolarni faqat tashqi sabablar bilan izohlash emas, balki ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik va ijtimoiy omillarni o‘zaro bog‘liqlikda baholash muhimdir. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda samarali muloqot, hissiy o‘zini boshqarish, o‘zaro hurmat va mas’uliyatni kelishilgan holda taqsimlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh oilaning mustaqil qaror qabul qilishi bilan ota-onalar va qarindoshlar bilan munosabatlarni muvozanatli tashkil etishi nikohga moslashishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlarda psixologik maslahat, nikohga tayyorlash dasturlari va oilaviy munosabatlar bo‘yicha ma’rifiy mashg‘ulotlardan foydalanish nizolarni konstruktiv hal etish

ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, nikohga moslashish davrida oilaviy barqarorlikni ta’minlash er-xotinning kelishmovchiliklarni o‘zaro tushunish, murosaga kelish va hamkorlik asosida hal etish qobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Oilaviy munosabatlarning mustahkamligi nizolarning mutlaqo mavjud emasligi bilan emas, balki ularni xavfsiz, adolatli va konstruktiv tarzda boshqarish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bois, yosh oilalarda psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish oilaviy munosabatlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.: Питер, 2008. – 215-b.
2. Сысенко В.А. Супружеские конфликты. – М.: Мысль, 1989. – 54-b.
3. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma / G‘.B. Shoumarov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2010. – 112-b.
4. Сатир В. Вы и ваша семья. Руководство по личностному росту. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. – 88-b.
5. Волкова А.Н., Трапезникова Т.М. Методические приемы диагностики супружеских отношений // Вопросы психологии. – 1985. – №4. – 110-116-b.
6. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Т.: Фан ва технология, 2012. – 172 б.
7. Андреева Т.В. Психология современной семьи: монография. – СПб.: Речь, 2005.
8. Bowen, M. Family Therapy in Clinical Practice. – New York: Jason Aronson, 1978. – 565 p.
9. Minuchin, S. Families and Family Therapy. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974.
10. Satir, V. Peoplemaking. – Palo Alto, CA: Science and Behavior Books, 1972. – 304 p.
11. Olson, D.H. Circumplex Model of Marital and Family Systems // Journal of Family Therapy. – 2000. – Vol. 22, № 2. – P. 144–167.
12. Noller, P., Feeney, J.A., Bonnell, D., Callan, V.J. A Longitudinal Study of Conflict in Early Marriage // Journal of Social and Personal Relationships. – 1994. – Vol. 11, № 2.
13. Bradbury, T.N. (Ed.). The Developmental Course of Marital Dysfunction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.